

**Abdurazzakov Yusufjon Usmoilovich**, FarDU., katta o`qituvchi, e-mail:  
yusuffer@mail.ru Telefon: +998939829864 orcid.org/0000-0001-6331-6342



---

## TURLI TILLAR FRAZELOGIYASIDA ERKAK OBRAZINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI VA IJTIMOYIY FUNKSIYASI

<https://zenodo.org/records/18767109>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nemis va o`zbek tillarida erkak obrazining frazeologik talqini va uning ijtimoiy roli qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda erkak shaxsiga oid frazeologik birliklarning xalq dunyoqarashi, ijtimoiy kutishlar, axloqiy me`yorlar va gender stereotiplarini ifodalashdagi o`rni ochib beriladi. Ishda tavsifiy-analitik, qiyosiy-tipologik, semantik, lingvomadaniy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari erkak obrazining frazeologiyada ko`proq kuch, mas`uliyat, yetakchilik va himoyachi funksiyalari bilan bog`lab talqin qilinishini ko`rsatadi. Maqola natijalari gender lingvistika va qiyosiy frazeologiya uchun nazariy ahamiyatga ega.

**Kalit so`zlar:** frazeologiya, erkak obrazi, gender lingvistika, ijtimoiy rol, lingvomadaniyat, baholovchi semantika, qiyosiy tilshunoslik

## ОБРАЗ МУЖЧИНЫ ВО ФРАЗЕОЛОГИИ РАЗЛИЧНЫХ ЯЗЫКОВ: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ЕГО СОЦИАЛЬНАЯ ФУНКЦИЯ

**Аннотация:** В статье проводится сравнительно-лингвокультурологический анализ фразеологической интерпретации образа мужчины и его социальной роли в немецком и узбекском языках. Рассматривается роль фразеологизмов в репрезентации социальных ожиданий, моральных норм и гендерных стереотипов. Рассматриваются положительные, отрицательные и нейтральные оценки, а также их связь с национальным менталитетом и социальными стереотипами.

**Ключевые слова:** фразеология, образ мужчины, гендерная лингвистика, социальная роль, лингвокультура, оценочная семантика.

## THE REPRESENTATION OF MAN IN THE PHRASEOLOGY OF DIFFERENT LANGUAGES: A LINGUOCULTURAL ANALYSIS AND ITS SOCIAL FUNCTION

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of German and Uzbek phraseological units referring to the image of men from semantic, evaluative and linguocultural perspectives. The study reveals positive, negative and neutral evaluations and their relation to cultural mentality and social stereotypes. This article presents a comparative linguocultural analysis of the phraseological interpretation of the male image and its social

role in German and Uzbek. The study reveals the role of phraseological units in representing social expectations, moral norms, and gender stereotypes.

**Keywords:** phraseology, male image, gender linguistics, social role, linguoculture, evaluative semantics.

### **Kirish.**

Zamonaviy tilshunoslikda til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlar tizimi va madaniy stereotiplarini aks ettiruvchi muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. Til orqali jamiyat o'zining qadriyatlari, me'yorlari va tarixiy tajribasini avloddan avlodga yetkazadi, shuningdek, shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tilning eng "madaniy yuklangan" qatlamlaridan biri bo'lib, ularda xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlari, genderga oid qarashlari hamda etnopsixologik stereotiplari mujassam bo'ladi. Frazeologizmlarda jamiyat tomonidan qadrlanadigan fazilatlar, ideal xatti-harakatlar va ijtimoiy rollar obrazli shaklda aks ettiriladi. Masalan, erkak va ayol obrazlari, yoshlik va keksalik tushunchalari yoki ma'lum ijtimoiy guruhlarining qadriyatlari frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, frazeologiya til egalarining tafakkurini shakllantirish, axloqiy va ijtimoiy baholash me'yorlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Frazeologik birliklarning madaniy yuklanishi ularni oddiy leksik birliklardan ajratib turadi. Har bir ibora yoki maqol xalqning urf-odatlarini, tarixiy voqealari, gender qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Shu sababli frazeologiya nafaqat tilni o'rganish, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy strukturasi, shuningdek, insonning ijtimoiy va gender rollariga bo'lgan munosabatini o'rganish uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Umuman olganda, frazeologik birliklar — tilning eng barqaror, obrazli va madaniy jihatdan boy qatlamlari bo'lib, ular jamiyatning tarixiy tajribasi, qadriyat tizimi va gender stereotiplarini saqlovchi va uzatuvchi asosiy ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Gender lingvistika doirasida erkak va ayol obrazining tilda qanday talqin qilinishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Erkak obrazi ko'plab madaniyatlarda kuch, iroda, mas'uliyat, himoyachilik va yetakchilik bilan bog'lab tasavvur qilinadi. Bu tasavvurlar esa eng barqaror va stereotiplashgan shaklda aynan frazeologiyada mustahkamlangan bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida: "So'zida turadigan erkak", "Belini mahkam bog'lamoq", "Yelkasiga tog' quchmoq" kabi frazeologik birliklar erkakni mas'uliyatli, qat'iyatli va jamiyatda tayanch sifatida qaraladigan shaxs sifatida tasvirlaydi.[8.189] Ushbu iboralarda erkakning oilaviy, ijtimoiy va madaniy vazifalari bilan bog'liq ideal xarakterlar aks etadi. Masalan, "So'zida turadigan erkak" iborasi erkakning sadoqat, halollik va mas'uliyatga tayangan ijtimoiy maqomini ifodalaydi, "Belini mahkam bog'lamoq" esa murakkab vaziyatlarda matonat va kuch ko'rsatish qobiliyatini ta'kidlaydi. Shu tarzda, o'zbek frazeologiyasida erkak obrazining semantik qatlamlari nafaqat biologik jinsiy xususiyatni, balki ijtimoiy rol, madaniy me'yorlar va axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi.

### **Natija va muhokama.**

Nemis tilida esa erkak obrazini ifodalovchi frazeologizmlar, masalan: „Ein Mann ein Wort“(erkakning so'zi — so'z), „Die Zügel in der Hand halten“ (boshqaruvni qo'lda tutmoq), „Seinen Mann stehen“ (matonat ko'rsatmoq), erkakni irodali, yetakchi va jamiyatda faol rol egallovchi shaxs sifatida aks ettiradi. Bu iboralarda erkakning faolligi, mas'uliyati va qaror qabul qilishdagi mustaqilligi markaziy o'ringa qo'yilgan. Nemis frazeologiyasida erkak obrazining semantik maydoni ko'proq professional va ijtimoiy funktsionallik bilan bog'liq bo'lib, shaxsning jamiyatdagi o'rni va yetakchilik fazilatlarini ta'kidlaydi.[3.97]

Mazkur maqolaning maqsadi — nemis va o‘zbek tillarida erkak obrazining frazeologik talqini va uning ijtimoiy rolini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot orqali frazeologik birliklar erkak obrazining milliy madaniy kod, ijtimoiy stereotip va axloqiy me‘yorlar bilan chambarchas bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, olingan natijalar frazeologiya nafaqat lingvistik birliklar tizimi, balki jamiyatning gender rollari, qadriyat tizimi va ijtimoiy strukturasi aks ettiruvchi madaniy-kognitiv mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi sifatida bir nechta ilmiy yondashuvlar va metodlar qo‘llanilib, frazeologik birliklarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi vazifasi puxta o‘rganildi. Jumladan, semantik tahlil yordamida frazeologik birliklarning asosiy ma‘nosi, konnotativ qatlamlari va erkak obrazini aks ettirishdagi semantik xususiyatlari aniqlangan. Bu metod erkak obrazining frazeologik birliklarda qanday qadrlanishini va ijtimoiy rol bilan bog‘liqligini tahlil qilish imkonini berdi.

Komponent tahlil frazeologizmlardagi baholovchi elementlarni aniqlash, ularning tarkibiy semantik qismlarga ajratilishi va har bir komponentning erkak obrazini shakllantirishdagi vazifasini ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Shu orqali frazeologik birliklar nafaqat ma‘noni, balki madaniy va ijtimoiy stereotiplarni ham uzatish mexanizmi ekanligi aniqlangan. Qiyosiy-tipologik metod nemis va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni solishtirishga imkon berdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida erkak ko‘proq oilaviy mas‘uliyat, jamiyatga tayanch va axloqiy me‘yorlar bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis tilida erkak obrazining semantik maydoni ijtimoiy yetakchilik, faol rol, mustaqil qaror qabul qilish va professional javobgarlik bilan ifodalanadi. Shu tarzda, qiyosiy tahlil orqali har ikki til frazeologiyasida erkak obrazining milliy va madaniy kodlari qanday aks etishini aniqlash mumkin bo‘ldi. Lingvomadaniy yondashuvlar esa frazeologik birliklarda gender stereotiplari, jamiyatdagi erkakning maqomi va madaniy qadriyatlarning ifodalanish usullarini ochib berdi. Ushbu yondashuv yordamida erkak obrazining til orqali ijtimoiy stereotiplar shaklida mustahkamlanishi va avloddan-avlodga uzatilish mexanizmi tushuntirildi.[10.65]

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikki til frazeologiyasida erkak obrazining barqaror stereotiplar orqali shakllanishi aniq kuzatiladi. O‘zbek tilida erkak ko‘proq oilaviy va jamoaviy tayanch sifatida talqin qilinsa, nemis tilida u ijtimoiy yetakchi va faol rol egallovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar erkak obrazini faqat biologik jinsiy belgisi sifatida emas, balki ijtimoiy maqom, madaniy me‘yorlar va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq konstruksiya sifatida aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, frazeologiya nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki erkak obrazini shakllantiruvchi, jamiyatdagi gender rollarni mustahkamlovchi va madaniy-kognitiv stereotiplarni avloddan-avlodga uzatuvchi muhim ijtimoiy-madaniy vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot zamonaviy frazeologiya, gender lingvistika, lingvomadaniyat va kognitiv tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda olib borildi. Nazariy asos sifatida V.N. Teliya, A.V. Kunin, V.A. Maslova, Yu.S. Stepanov, H. Burger kabi olimlarning ishlari foydalanildi. Quyidagi metodlar qo‘llanildi: Tavsifiy-analitik metod — erkak obraziga oid frazeologik birliklarni yig‘ish va tasniflash uchun. Qiyosiy-tipologik metod — nemis va o‘zbek tillaridagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash uchun. Semantik va komponent tahlil — frazeologizmlardagi baholovchi va ijtimoiy mazmunni ochish uchun. Lingvomadaniy tahlil — madaniy stereotiplar va ijtimoiy rollarni izohlash uchun. Kontekstual tahlil — birliklarning real nutqdagi funksiyasini ko‘rsatish uchun.

O‘zbek frazeologiyasida erkak obrazi. O‘zbek tilida erkak ko‘pincha oila tayanchi, mas‘ul shaxs, himoyachi sifatida talqin qilinadi: “Belini mahkam bog‘lamoq” — mas‘uliyatni zimmasiga olmoq “Yelkasiga yuk bo‘lmoq” — javobgarlik ko‘tarish, “So‘zida turmoq” —

va'daga sodiqlik, "Tog'day suyanmoq" — tayanch bo'lish. Shuningdek, erkakning irodasi va qat'iyliigi: "Bir so'zli bo'lmoq", "Qattiq qo'l bo'lmoq" kabi birliklar orqali ifodalanadi.[11.104]

Nemis frazeologiyasida erkak obrazi. Nemis tilida erkak obrazi ko'proq yetakchilik, intizom va nazorat bilan bog'lanadi: „Ein Mann ein Wort“— so'zga sodiqlik, „Die Sache in der Hand haben“— boshqaruvni qo'lda tutish „Seinen Mann stehen“— qiyinchilikka bardosh berish, „Das Ruder führen“— yetakchilik qilish. Mas'uliyat va qat'iyat: „Rückgrat haben“ (irodali bo'lish), „Nicht kneifen“ (chekinmaslik),kabi birliklar orqali ifodalanadi.[1.88]

O'zbek frazeologiyasida erkak ko'proq oila va yaqinlar uchun tayanch shaxs, Nemis frazeologiyasida esa tashkiliy va yetakchi figura sifatida tasvirlanadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, frazeologiya erkak obrazini faqat tavsiflamaydi, balki uni ijtimoiy me'yor sifatida mustahkamlaydi. Til orqali jamiyat erkakka yuklatilgan mas'uliyat, kutilmalar va ideal modelni avloddan avlodga uzatadi.

### **Xulosa.**

1.Xulosa qilib aytganda, nemis va o'zbek tillarida erkak obraziga oid frazeologik birliklar nafaqat tilning semantik va leksik qatlamini boyitadi, balki erkakning ijtimoiy rolini, mas'uliyat va yetakchilik funksiyasini, shuningdek, jamiyat tomonidan belgilangan madaniy va axloqiy kutishlarni o'zida mujassam etgan muhim lingvomadaniy vosita hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, frazeologiya orqali jamiyat erkak shaxsining "ideal modeli"ni shakllantiradi, unga normativ qiymat beradi va ushbu obrazni barqaror stereotiplar shaklida avloddan avlodga yetkazadi. Shuningdek, olingan natijalar frazeologiyaning nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy va madaniy-kognitiv funksiyasini ham ochib beradi.

2.O'zbek tilida erkak ko'proq oilaviy mas'uliyat va tayanch sifatida, nemis tilida esa ijtimoiy yetakchilik va faol rol bilan talqin qilinsa-da, har ikkala til frazeologiyasida erkak obrazining jamiyatdagi maqomi va qadriyat tizimi orqali ifodalanishi aniq kuzatiladi. Shu bilan frazeologiya erkak obrazini nafaqat tasvirlash, balki jamiyat tomonidan qadrlanadigan fazilatlar va ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

3.Bundan tashqari, frazeologik birliklar erkak obrazining emotsional-baholovchi jihatini ham aks ettiradi. Ya'ni, til birliklari orqali erkakka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat, maqtov yoki tanqid, idealizatsiya yoki kinoya ifodalanadi. Bu esa frazeologiyaning faqat nominativ emas, balki aksiologik (qadriyatga yo'naltirilgan) xususiyatini ham namoyon etadi. Masalan, kuch, matonat, so'zida turish, jasorat kabi fazilatlar ko'pincha erkaklikning ajralmas belgisi sifatida til vositasida mustahkamlanadi. Aksincha, ojizlik, mas'uliyatsizlik yoki qat'iyatsizlik erkak obraziga zid sifatlar sifatida salbiy baholanadi.

4.Shuningdek, tadqiqot natijalari frazeologik birliklar orqali erkak obrazining tarixiy taraqqiyot jarayonida qanday shakllanganini va ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida qanday transformatsiyaga uchrayotganini ham ko'rsatadi. Globallashuv, gender tengligi g'oyalarining kengayishi, ijtimoiy rollarning qayta taqsimlanishi kabi omillar zamonaviy frazeologiyada erkak obrazining yangicha talqin qilinishiga zamin yaratmoqda. Shunga qaramay, an'anaviy stereotiplar hamon til xotirasida saqlanib qolgan bo'lib, ular madaniy davomiylikni ta'minlovchi omil sifatida xizmat qilmoqda.

5.Umuman olganda, nemis va o'zbek tillaridagi erkak obraziga oid frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Frazeologiya insonning ijtimoiy ongida shakllangan gender tasavvurlarini mustahkamlovchi, ularni baholovchi va avlodlarga uzatuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot natijalari nafaqat frazeologiya va lingvokulturologiya, balki gender lingvistikasi, sotsiologiya va madaniyatshunoslik yo'nalishlari uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kunin, A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. Moskva: Vysshaya shkola, 1996.
2. Maslova, V.A. Lingvokulturologiya: Teoriya i praktika. Moskva: Akademiya, 2001.
3. Stepanov, Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. Moskva: Akademicheskii projekt, 2004.
4. Burger, H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010.
5. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Wierzbicka, A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford: Oxford University Press, 1997.
7. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford, 1997.
8. Shomaqsudov, A., Shorahmedov, Sh. O'zbek tili frazeologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983.
9. Hojiyev, A. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
10. Nurmonov, A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2002.
11. Mahmudov, N. Til va madaniyat. Toshkent: Ma'naviyat, 2010.